

**ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINING BOSHQARUV
SAMARADORLIGINI BAHOLASH ASOSLARI**

Ataismatov Iqboljon Zumratjonovich

Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi Тел:33)000-44-77 e-
mail:iataisamtov@bk.ru <https://orcid.org/0009-0002-1233-4561>

Annotatsiya: Ushbu tezisda globallashuv va investitsiyalar uchun kuchayib borayotgan raqobat sharoitida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatining boshqaruv samaradorligini baholash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda EIZlarni boshqarishning institutsional mexanizmlari, boshqaruv qarorlarining iqtisodiy natijalarga ta'siri hamda boshqaruv samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar yoritiladi. Shuningdek, EIZ direksiyalari faoliyatini baholashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, boshqaruv samaradorligi, baholash mezonlari, institutsional mexanizm, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy tahlil.

**ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН**

Аннотация: В данной работе анализируются вопросы оценки эффективности управления деятельностью свободных экономических зон в условиях глобализации и усиления конкуренции за инвестиции. Рассматриваются институциональные механизмы управления, влияние управленческих решений на экономические результаты, а также основные показатели оценки эффективности деятельности дирекций свободных

экономических зон. Предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию системы оценки управления.

Ключевые слова: *свободная экономическая зона, эффективность управления, критерии оценки, институциональный механизм, инвестиции, экономическое развитие, экономический анализ.*

FUNDAMENTALS OF ASSESSING MANAGEMENT EFFICIENCY OF FREE ECONOMIC ZONES

Abstract: *This thesis analyzes the issues of assessing management efficiency of free economic zones under conditions of globalization and increasing competition for investment. It examines institutional management mechanisms, the impact of managerial decisions on economic outcomes, and key indicators used to evaluate management performance. The study also proposes practical recommendations for improving the assessment system of free economic zone management.*

Keywords: *free economic zone, management efficiency, evaluation criteria, institutional mechanism, investment, economic development, economic analysis.*

Asosiy qism

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, EIZlarning kutilgan natijalarga erishishi ularning samarali boshqaruv tizimiga bevosita bog'liqdir. Mazkur sharoitda EIZ faoliyatining boshqaruv samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Jahon amaliyotida EIZlarni boshqarishning turli modellari mavjud bo'lib, ular davlat boshqaruvi, davlat-xususiy sheriklik va xususiy boshqaruv shakllarini o'z ichiga oladi. Ushbu modellarning samaradorligi investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, eksport darajasi, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion faoliyat kabi natijalar orqali baholanadi. Shu bois, boshqaruv samaradorligini baholash ko'rsatkichlari iqtisodiy va institutsional omillarni kompleks tarzda qamrab olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar boshqarish tizimi asosan EIZ direksiyalari orqali amalga oshiriladi. Direksiyalar zimmasiga investitsiya loyihalarini tanlash, infratuzilmani rivojlantirish, investorlar bilan ishlash va davlat organlari bilan muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, EIZlar faoliyatida hududlar kesimida samaradorlik darajasi sezilarli farq qiladi, bu esa boshqaruv samaradorligini baholashning yagona va aniq metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Boshqaruv samaradorligini baholashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalanish mumkin: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, amalga oshirilgan investitsiya loyihalar soni va sifati, eksport ko'rsatkichlari, yangi ish o'rinlari yaratish darajasi, infratuzilma rivoji va investorlar qoniqish darajasi. Ushbu ko'rsatkichlar EIZ direksiyalari faoliyatining real natijalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Takliflar

- Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruv samaradorligini baholash bo'yicha yagona indikatorlar tizimini joriy etish;

- EIZ direksiyalari faoliyatini baholashda natijaga yo‘naltirilgan (KPI) yondashuvni qo‘llash;
- Xorijiy investorlarni jalb etish ko‘rsatkichlarini boshqaruv samaradorligining asosiy mezoni sifatida belgilash;
- Boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda statistik va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish;
- EIZ direksiyalari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish;
- Jahon tajribasi asosida EIZlarni boshqarishning ilg‘or modellarini joriy etish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ularni boshqarish tizimining qay darajada to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Boshqaruv samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan va tizimli mexanizmini joriy etish EIZlarning investitsion jozibadorligini oshirish, iqtisodiy natijalarni yaxshilash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–604-son, 17.02.2020.
2. World Bank. Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Development. Washington, DC, 2008.
3. Karimqulov J.I. (2019). Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. Diss. avtoref. – T.: BMA.
4. Xujamkulov D.Y. (2019). Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. – T.: Iqtisodiyot.

5. Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Ruzibayeva N.X. (2020). Investitsiya.
Darslik.